TASVIRLASHDA DIFFERENSIAL YONDASHUV ASOSIDA BO‘LAJAK TARBIYACHILARNING IJODIY KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH

Axmedova Nazokat Erkinovna
Xalqaro Nordik universiteti o‘qituvchisi

Annotatsiya
Mazkur maqolada bo‘lajak tarbiyachilarning tasviriy faoliyatga tayyorgarligini takomillashtirishda differensial yondashuvdan foydalanishning ilmiy-metodik asoslari yoritilgan. Tasvirlash jarayoni shakl, rang, nisbat, kompozitsiya, fazoviy tasavvur va idrokni rivojlantirish bilan birga, talabalarda mustaqil ijodiy qaror qabul qilish, estetik munosabat bildirish hamda kasbiy-metodik kompetensiyalarni shakllantirish vositasi sifatida tahlil qilinadi.
Kalit so‘zlar: *tasvirlash, differensial yondashuv, bo‘lajak tarbiyachi, tasviriy faoliyat, ijodiy kompetensiya, idrok, kompozitsiya, rang, shakl, maktabgacha ta’lim, pedagogik texnologiya.*

KIRISH

Bugungi kunda ta’lim tizimida shaxsga yo‘naltirilgan, kompetensiyaviy va differensial yondashuvlar asosida o‘qitish masalasi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, maktabgacha ta’lim yo‘nalishida tahsil olayotgan bo‘lajak tarbiyachilarni kasbiy faoliyatga tayyorlashda ularning nafaqat nazariy bilimlari, balki tasviriy faoliyatni tashkil eta olish, bolalarning badiiy-estetik rivojlanishiga rahbarlik qilish, ijodiy topshiriqlarni yosh va individual xususiyatlarga moslashtirish kompetensiyalarini rivojlantirish muhimdir.

O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 16-dekabrdagi “Maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘g‘risida”gi O‘RQ-595-son Qonunida mazkur hujjatning maqsadi “maktabgacha ta’lim va tarbiya sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat” ekani belgilangan.[39] Ushbu qonun maktabgacha ta’limni davlat siyosatining muhim yo‘nalishi sifatida huquqiy jihatdan mustahkamlaydi. Shuningdek, 2020-yil 23-sentabrdagi “Ta’lim to‘g‘risida”gi O‘RQ-637-son Qonunida ta’lim sohasidagi munosabatlarni tartibga solish, ta’lim sifatini ta’minlash va ta’lim oluvchilarning shaxsiy rivojlanishiga sharoit yaratish masalalari belgilangan. [40] Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 22-dekabrdagi 802-son qarori bilan tasdiqlangan “Maktabgacha ta’lim va tarbiyaning davlat standarti”da davlat standartining maqsadi, asosiy vazifalari, prinsiplari, tarkibiy qismlari va uni joriy etish tartibi belgilangan.[41] Davlat standartida maktabgacha yoshdagi bolalarning har tomonlama rivojlanishini ta’minlash, bilish jarayonlarini shakllantirish, ijodiy rivojlanish va ta’lim-tarbiya jarayonini samarali tashkil etish masalalari ustuvor yo‘nalishlar sifatida ko‘rsatiladi.

[1] O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 16-dekabrdagi “Maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘g‘risida”gi O‘RQ-595-son Qonuni. www.lex.uz.

[2] O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrdagi “Ta’lim to‘g‘risida”gi O‘RQ-637-son Qonuni. www.lex.uz.
[3] O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 22-dekabrdagi 802-son qarori bilan tasdiqlangan “Maktabgacha ta’lim va tarbiyaning davlat standarti”. www.lex.uz.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 30-sentabrdagi PF-152-sonli “Maktabgacha ta’lim sifati va samaradorligini yanada oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Farmonida maktabgacha ta’limda innovatsiyalarni, ilg‘or pedagogik va raqamli texnologiyalarni keng joriy etish vazifasi belgilangan.[42] Ushbu hujjatda maktabgacha ta’lim mazmunini takomillashtirish, bolalarda bilim olish, kommunikativ va ijodiy kompetensiyalarni shakllantirishga qaratilgan o‘quv-metodik materiallarni ishlab chiqish zarurligi ta’kidlanadi.[43] Demak, oliy ta’limda bo‘lajak tarbiyachilarni tasviriy faoliyatga metodik jihatdan puxta tayyorlash zaruratini kuchaytirish va bo‘lajak tarbiyachilarning tasviriy faoliyatga tayyorgarligini differensial yondashuv asosida rivojlantirish bugungi ta’lim siyosati bilan bevosita bog‘liqdir.

“Ilk qadam” milliy o‘quv dasturining takomillashtirilgan uchinchi nashrida ham bola shaxsining har tomonlama rivojlanishi, qiziqishlari, individual imkoniyatlari, ijodiy faolligi va rivojlantiruvchi muhit bilan bog‘liq yondashuvlar asosiy o‘rinda turadi. Ayniqsa, badiiy-ijodiy rivojlanish yo‘nalishi bolalarda tasavvur, estetik sezgirlik, rang va shaklni idrok etish, tasvir orqali o‘z fikrini ifodalash ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Shu sababli oliy ta’limda bo‘lajak tarbiyachilarni tasviriy faoliyatga tayyorlashda differensial yondashuvdan foydalanish ilmiy va amaliy jihatdan muhim hisoblanadi.

MAVZUNING DOLZARBLIGI

Tasvirlash faoliyati oddiy rasm chizish jarayoni emas, balki ko‘rish, idrok etish, tahlil qilish, qiyoslash, tasavvur qilish va ijodiy ifodalash kabi murakkab bilish jarayonlarini o‘zida mujassamlashtiradi. Bo‘lajak tarbiyachi tasviriy faoliyatni metodik jihatdan puxta egallagan taqdirdagina maktabgacha yoshdagi bolalarda rang, shakl, fazo, nisbat, kompozitsiya va estetik didni rivojlantirishga samarali rahbarlik qila oladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-maydagi PQ-4312-sonli qarori bilan tasdiqlangan “O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi”da maktabgacha ta’lim tizimini uzoq muddatli rivojlantirish, ta’lim-tarbiya jarayoni sifatini oshirish va zamonaviy pedagogik yondashuvlarni joriy etish bo‘yicha kompleks vazifalar belgilangan.[44] Prezidentning 2018-yil 5-apreldagi PQ-3651-sonli qarorida esa maktabgacha ta’lim tizimini yanada rag‘batlantirish, davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish, tizimni tashkiliy jihatdan mustahkamlash masalalari belgilangan.[45] Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-oktabrdagi PF-6097-sonli Farmoni bilan tasdiqlangan “Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi”da ilmiy faoliyat natijadorligini oshirish, tadqiqotlarni zamonaviy talablar asosida tashkil etish hamda

[4] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 30-sentabrdagi PF-152-sonli “Maktabgacha ta’lim sifati va samaradorligini yanada oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Farmoni. www.lex.uz.
[5] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 30-sentabrdagi PF-152-sonli Farmoni, maktabgacha ta’limda innovatsiyalar, ilg‘or pedagogik va raqamli texnologiyalarni joriy etishga oid bandlar. www.lex.uz.
[6] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-maydagi PQ-4312-sonli “O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Qarori. www.lex.uz.
[7] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-apreldagi PQ-3651-sonli “Maktabgacha ta’lim tizimini yanada rag‘batlantirish va rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori. www.lex.uz.

ilm-fan va ta’lim integratsiyasini kuchaytirish vazifalari belgilangan.[46] Bu holat bo‘lajak tarbiyachilarni tayyorlashda nazariy bilim, amaliy ko‘nikma va ilmiy-metodik yondashuvlarni uyg‘unlashtirish zarurligini ko‘rsatadi.

2025-yil 19-martdagi PF-51-sonli Farmonda maktabgacha va maktab ta’limi sohasida boshqaruv tizimi samaradorligini oshirish, yuqori salohiyatli kadrlarni jalb etish hamda sifatli ta’limga erishish masalalari ilgari surilgan.[47] Bunday sharoitda bo‘lajak tarbiyachilarning kasbiy-metodik tayyorgarligini takomillashtirish, jumladan, tasviriy faoliyatni differensial yondashuv asosida tashkil etish bo‘yicha ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqish dolzarb vazifalardan biridir.

Tasviriy faoliyatda differensial yondashuvning dolzarbligi shundaki, talabalar tasvirlashga bir xil tayyorgarlik bilan kelmaydi. Ayrim talabalar shakl va nisbatni tez ilg‘aydi, boshqalari rang tanlashda faol, yana boshqalari kompozitsion joylashtirish yoki fazoviy tasavvurda qiynaladi. Demak, barcha talabaga bir xil topshiriq va bir xil baholash mezonini qo‘llash ularning ijodiy imkoniyatlarini to‘liq ochib bermaydi. Differensial yondashuv esa talabaning individual rivojlanish darajasiga mos topshiriq tanlash, metodik yordam ko‘rsatish va ijodiy o‘sish dinamikasini baholash imkonini beradi.

ADABIYOTLAR VA ILMIY-NAZARIY ASOSLAR TAHLILI

Differensial ta’lim nazariyasida ta’lim oluvchining individual ehtiyoji, qobiliyati, qiziqishi va tayyorgarlik darajasini hisobga olish markaziy o‘rinda turadi. C.A. Tomlinson differensial ta’limni o‘quvchilarning tayyorgarlik darajasi, qiziqishi va o‘rganish uslubiga mos ravishda mazmun, jarayon, natija va ta’lim muhitini moslashtirish deb izohlaydi.[48] Ushbu yondashuv tasviriy faoliyatda ayniqsa muhim, chunki ijodiy mahsulot faqat bilimga emas, balki idrok, estetik sezgirlik, tasavvur va amaliy tajribaga ham bog‘liq.

L.S. Vygotskiyning “yaqin rivojlanish zonasi” haqidagi qarashlari differensial yondashuvning psixologik-pedagogik asosini tashkil etadi. Mazkur nazariyaga ko‘ra, ta’lim oluvchi mustaqil bajara oladigan vazifa bilan pedagog yordami orqali bajara oladigan vazifa o‘rtasidagi oraliq uning rivojlanish imkoniyatini belgilaydi.[49] Tasvirlash jarayonida bu tamoyil bosqichli, murakkablik darajasi oshib boruvchi, lekin talaba uchun erishilishi mumkin bo‘lgan topshiriqlar orqali amalga oshiriladi.

B. Bloom taksonomiyasida bilish faoliyati eslab qolishdan boshlab tushunish, qo‘llash, tahlil qilish, baholash va yaratish darajasigacha rivojlanishi ko‘rsatiladi.[50] Tasvirlash jarayonida ham talaba dastlab predmetni kuzatadi, keyin shakl, rang, nisbat va kompozitsiyani tahlil qiladi, yakunda esa mustaqil ijodiy yechim

[8] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-oktabrdagi PF-6097-sonli “Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Farmoni. www.lex.uz.
[9] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 19-martdagi PF-51-sonli “Maktabgacha va maktab ta’limi sohasida boshqaruv tizimi samaradorligini oshirishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni. www.lex.uz.
[10] Tomlinson C.A. The Differentiated Classroom: Responding to the Needs of All Learners. 2nd ed. Alexandria, VA: ASCD, 2014.
[11] Vygotsky L.S. Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. Cambridge: Harvard University Press, 1978.
[12] Bloom B.S. Taxonomy of Educational Objectives: The Classification of Educational Goals. New York: Longmans, Green, 1956.

yaratadi. Shu jihatdan tasviriy faoliyat ijodiy kompetensiyani shakllantirish uchun tabiiy metodik maydon hisoblanadi.

H. Gardnerning ko‘p qirrali intellekt nazariyasida shaxsning qobiliyatlari turlicha namoyon bo‘lishi asoslangan.[51] Tasviriy faoliyatda bu holat talabalarning vizual-fazoviy, kinestetik, estetik va shaxsiy refleksiv imkoniyatlarida ko‘rinadi. Shuning uchun differensial yondashuv tasviriy faoliyatda har bir talabaning kuchli tomonlarini aniqlash va rivojlantirishga xizmat qiladi.

Lowenfeld va Brittain bolalarning badiiy rivojlanishida erkin ifoda, vizual idrok va ijodiy tajribaning muhim ahamiyatini ta’kidlaydilar.[52] R.J. Sternberg esa vizual idrok, mental obrazlar va tafakkur jarayonlarining o‘zaro bog‘liqligini ko‘rsatadi.[53] M.A. Umataliyev natyurmort ishlash jarayonida shakllarni konstruktiv ifodalash malakalarini rivojlantirishni tasviriy savodxonlikning muhim sharti sifatida tahlil qiladi.[54] Marvin Bartel esa kuzatuv asosida chizish jarayonida bolalarda ko‘rish, taqqoslash, taktil sezish va tasviriy ifodalash ko‘nikmalarini bosqichma-bosqich rivojlantirish zarurligini asoslaydi.[55]

Mazkur ilmiy qarashlar tasviriy faoliyatda differensial yondashuvni qo‘llash nafaqat metodik qulaylik, balki ijodiy va kasbiy kompetensiyani rivojlantirish zarurati ekanligini ko‘rsatadi.

[13] Gardner H. Frames of Mind: The Theory of Multiple Intelligences. New York: Basic Books, 2011.
[14] Lowenfeld V., Brittain W.L. Creative and Mental Growth. New York: Macmillan, 1987.
[15] Sternberg R.J. Cognitive Psychology. Belmont: Wadsworth Cengage Learning, 2012.
[16] Umataliyev M.A. Talabalarni natyurmort ishlashga o‘rgatish jarayonida shakllarni konstruktiv ifodalash malakalarini rivojlantirish. Science and Education Scientific Journal. 2023. Vol. 4, Issue 12. B. 567–575.
[17] Bartel M. Teaching Observation Drawing to Young Children. Online article. Updated: November 15, 2013.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Tomlinson C.A. The Differentiated Classroom: Responding to the Needs of All Learners. 2nd ed. Alexandria, VA: ASCD, 2014.
2. Tomlinson C.A., Moon T.R. Assessment and Student Success in a Differentiated Classroom. Alexandria, VA: ASCD, 2013.
3. Vygotsky L.S. Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. Cambridge: Harvard University Press, 1978.
4. Bloom B.S. Taxonomy of Educational Objectives: The Classification of Educational Goals. New York: Longmans, Green, 1956.
5. Gardner H. Frames of Mind: The Theory of Multiple Intelligences. New York: Basic Books, 2011.
6. Lowenfeld V., Brittain W.L. Creative and Mental Growth. New York: Macmillan, 1987.
7. Sternberg R.J. Cognitive Psychology. Belmont: Wadsworth Cengage Learning, 2012.
8. Umataliyev M.A. Talabalarni natyurmort ishlashga o‘rgatish jarayonida shakllarni konstruktiv ifodalash malakalarini rivojlantirish. Science and Education Scientific Journal. 2023. Vol. 4, Issue 12. B. 567–575.
9. Bartel M. Teaching Observation Drawing to Young Children. Online article. Updated: November 15, 2013.